

18-dars. 5 ga va 10 ga bo'linish alomatlari



1. **5 ga** karrali sonlarni ayting.

Qaysi sonlar **10 ga** ham karrali?

105

125

317

215

130

103

5 ga bo'linish alomati

Oxirgi raqami 0 yoki 5 bilan tugaydigan sonlar 5 ga bo'linadi: [10, 15, 20, 25 ...]

a)

$$\begin{array}{r} 27805 \\ -25 \quad \underline{} \\ 28 \quad \underline{} \\ 25 \quad \underline{} \\ 30 \quad \underline{} \\ 30 \quad \underline{} \\ 0 \end{array}$$

b)

$$\begin{array}{r} 48755 \\ -45000 \\ \hline 3755 \\ -3500 \\ \hline 255 \\ -250 \\ \hline 0 \end{array}$$

10 ga bo'linish alomati

Oxirgi raqami 0 bilan tugaydigan sonlar 10 ga bo'linadi:
[10, 20, 30, 40, 50, 60, 70, 80, 90, 100, 110, 120 ...]

$$\cancel{120} : \cancel{10} = 12$$

Yodda tuting! $2 \cdot 5 = 10$ $4 \cdot 25 = 100$ $8 \cdot 125 = 1\,000$



2. Faqat barcha sonlari **5 ga karrali** bo'lgan ifodalarning qiymatini hisoblang.

a) $255 : 5 \cdot 15 + 345 : 5$

b) $405 : 3 \cdot 25 + 15 \cdot (345 - 315)$

d) $545 + 2\,345 : 5 \cdot 45 - 1\,985$



3. [2, 3, 5, 7, 10, 12, 15, 20, 23, 50, 55, 102, 110] natural sonlar to'plamidan quyidagilarni tanlang:

a) **10 ga** karrali sonlar;

d) **20** sonining bo'luvchilari;

b) **5 ga** karrali sonlar;

e) **55** sonining bo'luvchilari.



4. Ifodalarning qiymatini **qulay usulda** hisoblang.

a) $9 \cdot 2 \cdot 5$

d) $37 \cdot 25 \cdot 4$

f) $2 \cdot 302 \cdot 5$

b) $4 \cdot 25 \cdot 5$

e) $125 \cdot 3 \cdot 8$

g) $8 \cdot 16 \cdot 125$



5. 364 sahifali kitobning har bir sahifasida 65 tadan so'z bor. Shunday 3 ta kitobda jami nechta so'z bor?



6. To'g'ri to'rtburchak shaklidagi yer maydonining perimetri 72 m. Agar yer maydonining bo'yi 25 m bo'lsa, uning yuzini toping.



Berilgan:

$ABCD - \square$

$P_{\square} = 72 \text{ m}$

$a = 25 \text{ m}$

$b = ? \text{ m}$

$S_{\square} = ? \text{ m}^2$



7. Ifodalarning qiymatini hisoblang va natijalarni **metr**, **detsimetr** hamda **santimetrlarda** ifodalang.

a) $(6 \text{ dm} + 3 \text{ m } 72 \text{ cm}) : 3 + 45 \text{ cm} \cdot 3$

b) $(907 \text{ cm} - 1 \text{ m } 6 \text{ dm } 9 \text{ cm}) : 9 + 1 \text{ m } 93 \text{ cm} \cdot 5$



8. Ushbu ifodalarning qiymatlari **10 ga** bo'linishi yoki bo'linmasligini tekshiring.

a) $(2\,808 + 5\,698 + 1\,094) : 4$

b) $356 \cdot 3 + 241 \cdot 3 + 173 \cdot 3$

d) $(13\,450 + 28\,567) - 339 \cdot 3$

9. Karvon cho'l bo'ylab 664 km yo'l bosishi kerak edi. U birinchi kun 88 km, ikkinchi kun 96 km yo'l bosdi. Qolgan masofani esa har kuni 60 km dan bosib o'tdi. Karvonning cho'lni kesib o'tishi uchun jami necha kun kerak bo'lgan?

I kun — 88 km

II kun — 96 km

Qoldi — ? km, ? kun — har kuni 60 km

664 km — (?) kun

